

Ona yurti - oltin beshig

# TONG Yulduzi

№26 (66359)  
2002 yil  
24 iyun,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

**O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi**

*Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqib boshlagan.*



Mening ismim — Asolatxon, hozir olti yarim yoshdaman. «Tong yulduzi» gazetasi sahifalarida chop etiladigan qiziqarli hikoya, ertak, she'r va turli mavzudagi xabarlarni buvijonim o'qib berganlarida singilcham

ikkimiz mazza qilib tinglaymiz. Darvoqe, buvijonim Gulchehra opa jurnalistlar. Yaqinda ularning kasb bayramlari bo'larkan. Singlim ikkimiz ikki yuzlaridan o'pib, tabriklab qo'ydik. Singlim — Fazilatxon kuzda to'rt yoshga to'ladi,

Kuni kecha bog'chamizda maktabga tayyorlov guruhi bolalarining xayrlashuv bayrami bo'lib o'tdi. Biz ota-onalarimiz, yig'ilgan barcha mehmonlar davrasida bog'chada o'rganganlarimizni namoyish etdik.

## KITOB O'QISHNI ORZU QILAMAN

shunday bo'lsa-da, rangli kitobchalarni varaqlab, rasmlarni tomosha qilishni, ayniqsa, ertak tinglashni yaxshi ko'radi. Ikkalamiz ham bog'chaga boramiz. Bog'chada o'rtoqlarimiz juda ko'p. Ular bilan totuv-inoqmiz. Bog'cha opalarimiz har xil o'yin-mashg'ulotlar davomida biz bilmagan juda ko'p narsalar, hodisalar to'g'risida so'zlab beradilar, bizni sayru sayyohatlarga olib chiqadilar, kitoblar o'qib beradilar. Biz rasm chizishni, loydan turli o'yinchog'u buyumlar yasashni, she'r yodlashni xush ko'ramiz. Ayniqsa, musiqa mashg'ulotlari, bayram va ertaliklarga tayyorlanishni yoqtiramiz.

Endi maktabga chiqamiz. Hozir harflarni tanisak-da, hali qo'shib o'qishni uncha eplolmaymiz. Maktabga chiqqanimizda mazza bo'ladi-da. Yaxshi o'qishni o'rganib olishim bilan singlimga ham kitoblar o'qib beraman. Oyim yoki adamga o'qib bering, deb yalinib o'tirmayman. Eng avvalo kutubxonaga a'zo bo'laman. Chunki kitoblarda eng qiziqarli voqealar bayon etiladi.

Maktabga chiqqanimda faqat a'lo baholarga o'qishni niyat qilaman.

*Asolatxon nomidan xatni oqqa ko'chiruvchi  
Gulnoza  
ERKAXO'JAYEVA.*

## 27 Iyun - Matbuot va ommaviy

## axborot vositalari xodimlari kunini

Mustaqil yurtimizga to'y-yu tantanalar, shodiyonalar yarashadi. Yana ikki kundan so'ng ana shunday ajoyib bayramlardan biri - Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kunini bayram qilamiz. Bu munavvar kunda barchaning dilida, tilida ezgu niyat: televideniye, radio, gazeta va jurnallarda mehnat qilayotgan jurnalist ota-onalarimiz, aka va opalarimizni samimiy qutlaymiz. Ularning sharafli, shuning bilan birga o'ta mashaqqatli, mas'uliyatli ishlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz. Darhaqiqat, jurnalist

bo'lish oson emas. Bu kasbni egallash niyatidagi o'g'il-qizlar yoshlikdanoq puxta bilim olishlari, dunyoviy ilmlar bilimdoni bo'lib, dunyoqarashlarini kengaytirib borishlari, eng muhimi, to'g'riso'z va

x a q g o ' y bo'lishlari lozim bo'ladi, deb o'ylayman.

Men ham jurnalist bo'lishni orzulayman. Hozirdanoq «Yosh muxbirlar» to'garigiga qatnab, bu kasbning mashqini o'lyapman. Mendagi bu kasbga bo'lgan havasni 25

yildan buyon shu sohada mehnat qilib kelayotgan onajonim Latofat opa Boboqulova uyg'otganlar. Ular mening eng yaqin d o ' s t i m ,

## ONAMDEK BO'LSAM DEYMAN

sirdoshim va maslahatgo'yim bo'ladilar. Ishxonada ham hamkasblaridan yordamlarini, lozim bo'lsa, maslahatlarini ayamaydilar. Shundanmi, hammalari hurmat qilishadi... O'tgan yili oyijonimning samarali mehnatlari munosib taqdirlanib, «O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilligi» nomli ko'krak



nishoni bilan taqdirlandilar. Men ham xuddi onamdek ajoyib inson, mehribon ona va mohir jurnalist bo'lsam deyman.

*Nazokat BOBOQULOVA,  
Toshkentdagi  
142 - maktabning  
11 - sinf o'quvchisi.*

**Mustaqil yurt bolalari - iqtidorlidir**

- Farg'ona viloyati Qo'qon shahridagi «Texnik ijodiyot markazi»da 20 ta to'garak faoliyat ko'rsatadi. Unga 12-, 14-, 16-, 20-, 22- maktab o'quvchilari jalb qilingan.

Markazimizdagi to'garak rahbarlari o'qish davrida har oyda bir marotaba maktablarga borib, o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishadi. O'z to'garaklari haqida gapirib beradilar,- deydi Qo'qon shahridagi «Texnik ijodiyot markazi» direktori hamda «Aviamodel» to'garagi

rahbari Alisher aka Mirzayev. - Bundan tashqari har oyda bir marotaba markazimizdagi to'garak


a'zolari «Ochiq eshiklar kuni» ni uyushtiradilar. Bunda sinf rahbarlari, o'qituvchilar, ota-onalar va albatta bolalar qatnashadi. Shu yo'l orqali ko'plab o'quvchilar o'zlarini xohlagan to'garakka a'zo bo'lishgan.

Markazimizda «Metallga badiiy ishlov berish» to'garagi ham faoliyat ko'rsatadi. Unga qiziquvchilarning soni kundan-kunga ortib boryapti. O'quvchilar uylaridan chiqqan keraksiz chiqindilar, temir idishlari, ya'ni kofe va konservaning bo'shagan idishlarini yig'ib, to'garakka

olib keladilar. Ularga yaxshilab badiiy ishlov beradilar. Qarabsizki, gullar tagiga qo'yadigan idishcha, vaza, ko'za va xumchalar tayyor bo'ladi.

Bu ishlarning boshida to'garak rahbari Mixin Nikolay Petrovich turadilar. Ular o'quvchilarga kerakli maslahatlar beradilar. Birgalikda ishlab sira charchamaydilar.

Mana shunday fidoyi insonlar markazimizda ko'plab topiladi.

**AERODROMIDA AVIAMODELCHILAR**

Yaqinda Toshkent viloyatidagi «Arancha» aerodromida o'quvchi - yoshlar o'rtasida an'anaviy Respublika «Aviamodel» musobaqasi bo'lib o'tdi. Unda viloyatlardagi aviamodel sporti g'oliblari ishtirok etdi.

Musobaqa ishtirokchilari va albatta ularning ustozlari bilan suhbatlashdik.

**2 MINUTU 42 SEKUND UCHIGAN "SAMOLYOT"**

- Men Qo'qon shahridagi 1- maktabning 9- «A» sinfiga o'tdim,- deydi musobaqa ishtirokchisi Po'latjon Xudoyberdiyev. - O'qishlarim ham yomon emas.


«Yosh texniklar ijodiyot markazi»dagi «Aviamodel» to'garagiga to'rt yildan beri qatnayman.

Bir kuni ustozimiz Alisher aka maktabimizga keldilar va o'z to'garaklari haqida gapirib berdilar. Biz o'quvchilar to'garak ishiga juda qiziqib qoldik. Do'stlarim bilan markazga bordik.

Mana shu to'rt yil ichida ustozdan ko'p bilim oldik. Yaxshi narsalarni o'rgandik.

Bugungi musobaqaga dvigatelli taymer samolyot modeli bilan qatnashdim. Men yasagan samolyot modeli havoda 2 minutu 42 sekund uchdi. Tengdoshlarimnikidan ko'ra ko'proq havoda uchgani uchun ham birinchi o'rinni oldim. Bundan juda xursandman.

Kelajakda mohir uchuvchi bo'lishni orzu qilaman. Buning uchun ko'proq, yanada ko'proq bilim olish kerakligini ham bilaman.

**BEKORCHILIK BIZGA BEGONA**


- Biz uch o'rtoq - Po'lat, Marat va men- qo'shni turamiz. Maktabga ham birgalashib boramiz. Men ham Qo'qondagi 1- maktabda o'qiyman. 9- «A» sinfiga o'tdim,- deydi Oybek Shermatov. - Po'lat bilan sinfdosh va sirdoshmiz.

Po'lat va Maratning aviamodelga qiziqishi meni ham to'garakka yetakladi. To'garakka qatnayotganimga bir yil bo'ldi.

Gohida «Nega ilgariroq

qiziqmagan ekanman», deb o'ylab qolaman. Shuncha vaqtim bekorchilik bilan o'tganiga achinaman.

Hozirda bekor yurishga vaqt yo'q. Bekorchilik bizga begona. Garchi to'garak haftada ikki marotaba bo'lsa-da, ammo biz har kuni markazdamiz. Ustozimiz Alisher akani sira tinch qo'ymaymiz. O'z navbatida ular ham bizni doimo iliq kutib oladilar. Shunday ustozimiz borligidan juda xursandmiz.



- Men ham Po'lat bilan bir maktabda o'qiyman. Bu yil 9-sinfni tugatdim,-deydi Marat Nazarov.- Alisher aka rahbarlik qiladigan to'garakka to'rt yildan beri qatnab, samolyot

ishlash hajmi, og'irligi, ishlash vaqti ham turlichadir.

Ikkinchisi, planer modeli. U dvigatelsiz ishlaydi. Bu modelning ham ikki turi bor.

Uchinchisi, men tayyorlab kelgan



## MENING MODELIM

modelining uch turini o'zimiz tayyorlashni o'rgandik.

Birinchisi, taymer modeli samolyot. U dvigatel bilan ishlaydi. Uning ikki turi bo'lib, G'-1-S hamda G'-1-S ga bo'linadi. Dvigatelning

rezinamotorli modelidir. Uning ham ikki turi bor. V-1 va G'-1-V.

Mening samolyot modelim havoda ikki minut parvoz qildi. Do'stim Po'latning modelidan kamroq uchgani uchun menga ikkinchi o'rin nasib etdi.

Bundan xafa emasman. Eng asosiysi mening modelim ham musobaqada qatnashdi. Men o'z yutuq va kamchiligimni his qildim. Bundan keyin yanada ko'proq o'rganishga bel bog'ladim.

## ONAMNING MASLAHATI BOIS...


-Men varrak yasashni juda yaxshi ko'raman. Har bahorda ko'p varrak yasab, o'rtoqlarimga beraman va biz Boysun bag'rida uni baland-balandga uchirishga harakat qilamiz. Ammo doimo men yasagan varrak eng balandga uchadi,- deydi Surxondaryo viloyati, Boysun tumanidagi 25- maktabning 4- «A» sinf bitiruvchisi Tohirjon Xurramov.

Bir kuni onam menga tumanimizdagi «Texnik ijodiyot markazi»dagi «Aviamodel» to'garagi haqida gapirib qoldilar. Shu to'garakka qatnashimni

maslahat berdilar. Va o'zlari bilan birgalashib to'garakka bordik.

Mana ikki yildirki, «Aviamodel» to'garagi a'zosiman. Hozir varrak emas, samolyot modelini tayyorlayman. Ustozim O'ktam aka Xudoyberdiyevdan ko'p yaxshi narsalarni o'rganyapman.

Ustozning yordamlari tufayli bugungi musobaqaga rezinamotorli samolyot modelim bilan qatnashyapman. Maqsad g'oliblik emas. Balki akalarim tayyorlagan modellardan o'rganishdir.



Ha, ayni ta'til kunlarida har bir texnik markazda ish yanada jonlanadi. Ko'plab tadbirlar, ko'rik-tanlovlari musobaqalar uyushtiriladi.

Bunday ibratli tadbirlar orqali o'quvchi-yoshlarda yoshlikdanoq kasb-hunar ko'nikmalarini hosil qilishga, ularni sport mashg'ulotlariga

o'rgatib borishga va albatta bo'sh vaqtlarini unumli o'tkazishlariga erishilmoqda. Shu bilan birga ixtirochilik texnik qobiliyatlarini yanada rivojlantirib va doimo g'alabaga intilishga o'rgatilyapti.

Bugungi aviamodel musobaqasidan ko'zlangan maqsad ham shu edi-da.

Feruza SOYIBJON qizi.

Prezident asarlarini o'rganamiz

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

**Birinchidan,** mamlakatimiz siyosiy hayotining barcha sohalarini, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, aholining siyosiy faolligini oshirish, unda milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan siyosiy madaniyatni shakllantirish.

Bu jarayonda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi, plyuralizm va inson haq-huquqlarini ta'minlash, gumanizm va umuminsoniy qadriyatlarga rioya qilib yashash tamoyilini jamiyat hayotining asosiy mezoniga aylantirish.

**Ikkinchidan,** jamiyatimizda mavjud bo'lgan turli manfaatlar, qarama-qarshi kuchlar va harakatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan samarali mexanizmni shakllantirish, siyosiy hayotda haqiqiy ma'nodagi ko'ppartiyaviylik tamoyilini qaror toptirish.

**Uchinchidan,** demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun yanada kengroq shart-sharoit yaratish, hokimiyat tizimlari bo'linishining konstitutsiyaviy tamoyiliga qat'iy amal qilish, jamiyat a'zolarining barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini, tashabbus erkinligini ro'yobga chiqarish uchun zarur imkoniyatlarni vujudga keltirish.

Bu — mamlakatimizda demokratiya tamoyillariga asoslangan, hech qanday siyosiy kuchlarning sub'yektiv xohish-irodasiga qaram bo'lmasdan ishni faol tashkil qiladigan, o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyatning olg'a siljishiga xalaqit berayotgan illat va asoratlarni bartaraf etishga qodir bo'lgan samarali tizimni shakllantirish demakdir.

(Davomi bor).



## XATLAR TEGIRMONI



### EFIRDA «FM»

Shu yil iyun oyidan boshlab O'zbekiston radiosining birinchi dastur eshittirishlari «FM» 03,5 mgs. to'lqinida beriladigan bo'ldi. Natijada «O'zbekiston» kanalining eshittirishlari yanada osonroq va tiniqroq tarqatiladi. Buning sababi shundaki, «FM» to'lqinlarida tarqatiladigan eshittirishlar eng zamonaviy radiopriyomniklar orqali qabul qilinadi. Ular esa texnikaning eng so'nggi yutuqlari asosida yaratilgan bo'lib, tinglovchilar uchun ko'plab qulayliklarga ega. Shunday ekan, «O'zbekiston» kanali tinglovchilari soni yanada ortadi. Chunki «FM» to'lqini cho'ntakka sig'adigan eng kichik radiopriyomniklarda ham, portfelda olib yuriladigan apparatlarda ham mavjud. Biz ham ertalab maktabga ketayotganimizda bolalarga mo'ljallangan tonggi dasturlarni, kuy davomida esa turli qiziqarli eshittirishlarni bema'lol tinglash imkoniyatiga ega bo'ldik.

**Zulfizar SODIQOVA,**  
Toshkent shahridagi  
243 - maktabning  
9 - «A» sinf o'quvchisi.

Mana ikki yildirki, 1 iyun - Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni mening hayotimda unutilmas iz qoldiryapti. O'tgan yilgi bayramda maktabimizdagi a'lochi va jamoatchi o'quvchilarni «Bog'i Eram» va «Ulug'bek» nomidagi dam olish maskanlariga taklif qilishgandi. Ular qatorida men ham viktorinalarda qatnashib, «Akademik» unvoniga sazovor bo'lgandim. Bu yil ham omad menga kulib boqdi. «O'zbekiston - Vatanim mening»



## BOLA KULSA, OLAM KULADI

nomli festivalning laureati bo'ldim. Qo'shiq va she'rlarimni tinglagan «Tantana» guruhining badiiy rahbari meni o'z guruhlariga taklif qildilar. Nasib bo'lsa, endi «Tantana»da qo'shiq aytaman...

Shu kuni uyimizda qo'shaloq bayram bo'ldi. Singlim Dilnoza 10 yoshga to'ldi. Ko'zlari charos bo'lgani uchun biz uni «Oxula» deb erkalaymiz. Singlimga atab bir she'r yozdim:

### SINGLIM OXULAGA

Singlim oxu ko'z,  
Dono, shirinso'z.  
Yuzlari oydek,  
So'zlari moydek.

Senga tilagim,  
Omad tiladim.  
Sog'-omon yurgin,  
Dunyocha turgin.

Taniqli bo'lgin,  
Kamolga to'lgin.  
O'z ilming bilan,  
So'z, biliming bilan.

**Dilafruzbonu USMONOVA,**  
Shayxontohur tumanidagi  
169 - maktabning  
5 - «V» sinf o'quvchisi.

## ORZUGA AYB YO'Q

Men diplomat bo'lishni orzu harakat qilayapman. qilaman. O'z yurtim nomi tillarda doston bo'lsa, deyman.

Onamning aytishlaricha, quyon yilida tug'ilgan insonlardan yaxshi yurist yoki diplomat chiqarkan.

Men ham quyon yilida tug'ilganman. Balki bu gap rostdir.

Nima bo'lganda ham diplomat bo'lgan inson o'ta bilimdon, zukko va shirin so'z bo'lishi kerak. Yana ko'p tillarda bema'lol so'zlasha olishi shart.


Shuning uchun ham men hozirdanoq ko'proq bilim olishga, til o'rganishga

harakat qilaman. Maktabimizning ingliz tili o'qituvchilari - Nazokat opa Sultonova va Omongul opa To'xtayevadan qunt bilan til o'rganayapman. Buning uchun ulardan minnatdorman.

Kelajakda albatta maqsadim sari intilaman. O'z kasbining bilimdoni degan nom olishga

harakat qilaman.

**D. XOLMUHAMEDOVA,**  
Toshkent shahar, Chilonzor  
tumanidagi 114- maktabning  
9- sinf o'quvchisi.





Do'sting yuzta bo'lsa ham oz, deguvchilar juda haq ekan. Biz bolalar doimo bir- birimiz bilan do'st, o'rtoq bo'lishimiz kerak. Kamchiligimizni yuzimizga aytishimiz, yutuqlardan quvonishga o'rganishimiz lozim.

To'g'ri, yaxshi do'st topish qiyin. Do'stlikni saqlab qolish esa undanda qiyinroq.

Gohida o'g'il bolalar to'planib qolishganida ayrimlari qo'llariga tamaki oladilar. O'rtoqlariga ham tutqazadilar. Bordi-yu qo'lingizga tamaki olishni xohlamasangiz,

«Chekishni yigit kishiga chiqargan», deyishadi. «Bir marotaba tatib ko'r, hech narsa qilmaydi», deya

## YOMONLIK O'RGATUVCHIDAN QOCH

qo'shib qo'yishadi.

Shunda irodasi bo'shroq tengdoshlarimiz bu gaplardan so'ng qo'lga tamaki olishga majbur bo'lib qoladi. Qarabsizki, o'zi bilib- bilmay tamakiga «mehr» qo'yadi.

Bunday yo'lga kirib qolmaslik uchun irodamizni mustahkamlashimiz lozim. Buning uchun jismoniy

tarbiya bilan doimo shug'ullanishimizga to'g'ri keladi. Sport bizni doimo tarbiyalagan.

Bundan keyin ham shunday bo'ladi.

Har bir yomonlik bekorchilik oqibatida yuzaga keladi. Ayni ta'til kunlarida o'quvchilarning bo'sh vaqtlari ko'proq bo'ladi.

Vaqtimizning qadriga yetaylik- da, bo'sh vaqtlarimizni ko'proq to'garaklarda, sport klublarida o'tkazaylik.

**Sardor TUROPOV,**  
Poytaxtimizdagi  
121- maktab  
bitiruvchisi.

## QARORIM

Niyatlarim juda ulkan,  
Kunni ulayman tunga.  
Yetarmanmi orzuimga,  
Pok, oydin, nafis kunga?

Mushkulliklar cho'chitmas,  
Hech niyatdan qaytmayman.  
Olloh menga madadkor,  
Bo'ladi, deyman takror.

**Gulruh JABBOROVA,**  
Buxoro viloyati,  
G'ijduvon tumanidagi  
62- ixtisoslashtirilgan  
maxsus maktab  
internatining  
9- sinf o'quvchisi.



## LITSEYDA SAN'AT OYLI GI

Biz tahsil olayotgan Nafis san'at litseyida o'tgan oy «San'at oyligi» deb e'lon qilingan edi. «Suxandon» va «tasviriy san'at»ga ixtisoslashgan sinflar o'rtasida turli bellashuvlar, milliy san'atning turlari, hozirgi zamon estrada san'ati, tasviriy va xalq amaliy san'atining turlari bo'yicha savol-javoblar bo'lib o'tdi. Bu oylikni o'tkazishdan asosiy maqsad ixtisoslashgan sinflarga o'zbek san'ati haqida kengroq ma'lumot berish, ustozlaridan olgan saboqlarini ma'lum ma'noda imtihon qilishdan iborat edi. Yana bu oy davomida

o'quvchilar san'at muzeylariga, teatrlarga borib, el sevgan aktyor va aktrisalar bilan o'zaro muloqot uyushtiradilar. «San'at oyligi»miz boshqa fanlar oyligi kabi chiroyli va maroqli o'tdi.

**Shahnoza  
PIRMATOVA,**  
A. Navoiy nomidagi  
Respublika Nafis  
san'at litseyining 10 -  
«A»- «Suxandon»  
guruhi o'quvchisi.

## «OXFORT»DA O'QISAM DEYMAN

Mana 9 - sinfni ham bitirdik. Endi turli o'quv yurtlariga harakat.

Men ham kerakli hujjatlarni oldim-da, onam bilan birga Toshkent Davlat Jahon tillari Universiteti qoshidagi litseyga bordim. Bu yerda allaqachon «Qabul hay'ati» o'z ishini boshlab yuborgan ekan. Men Universitet bilan yaqindan tanishar ekanman, ispan tili bo'yicha ta'lim olgan talabalarning Ispaniyadagi tengdoshlari bilan birga

tushgan suratlari, esdalik sovg'alarini ko'rib havasim keldi. O'qishga, til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqim yanada ham ortdi. Mening eng katta orzuim Angliyaning «Oxford» Universitetida o'qib, malaka oshirishdir. Buning uchun a'loga o'qishim, til o'rganishim kerakligini yaxshi bilaman. Shuning uchun ham hozirda darsliklardan, «Axborotnoma»lardan foydalanyapman. Donishmand xalqimizning «Ish.bilganga bir tanga, til bilganga ming» naqliga amal qilyapman.

**Nargiza  
RIXSIBOYEVA,**  
Toshkent viloyati,  
Zangiota tumanidagi  
3 - maktabning  
9 - «A» sinf  
o'quvchisi.

### BILAG'ON BOLALAR DIQQATIGA

Siz «Tong yulduzi» sahifalarida uchraydigan xatolarni albatta topib, bizga yozib yuboring. Chunki atayin bilag'on va topag'onligingizni sinash maqsadida harflar tushirib qoldiriladi yoki qo'shib qo'yiladi. Tinish belgilari o'z o'rnida ishlatilmaydi...

Maqsadimiz bilimli bo'ling. Chunki osmonni yulduzlar, yerni esa bilimlilar bezar.

**Litseyim - faxrim mening**

- Men T.E.A.I qoshidagi akademik litseyda tahsil olaman. Litseyimizda, xususan guruhimizda shunday o'quvchilar borki, ularga ko'pchilikning havasi

bo'yicha keng ko'lamda ish olib borib, iqtisodiy yangiliklar, kashfiyotlar qilish niyatida.

Shohrux Boltayevni hech ikkilanmay «algebra fanining bilimdoni» desak bo'ladi. «Robotlarning texnikada qo'llanilishi» mavzusida olib borayotgan ilmiy izlanishlari deyarli nihoyasiga yetib qoldi. Endi uni litsey ma'muriyati e'tiboriga havola etish qolgan,

bo'yicha «Elektr energiyasiz suv chiqarish» mavzusidagi ilmiy ishlari ustida tinmay izlanish olib bormoqda. Unga ham litseyimiz o'qituvchilari qo'llaridan kelgancha yordam bermoqdalar.

Biz bu tengdoshlarimizga astoydil havas qilamiz, ulardan o'rnak olishga intilamiz, zero bizning kelajagimiz — Vatanimiz kelajagidir.

Litseyimizda o'quvchilarning



tugatgan va 2 - kurs darslarini yaxshi o'zlashtirgan, litseyda o'qish davomida a'lo baholar olgan o'quvchilarga omad kulib boqadi, ular bir yilga yutib, q o l g a n


**IZLANUVCHAN BOLALAR**

keladi. Chunki ular juda tirishqoq bolalar, har narsaga qiziqishadi, a'lo baholarga o'qishadi. Yana o'zlari qiziqqan fanlar yuzasidan ilmiy ish qilmoqdalar. Mavzularini har tomonlama o'rganib, yangi g'oyalar ham kiritmoqdalar. Quvonarlisi shundaki, ilmiy ishlarini muvaffaqiyatli yoqlasalar, nomzodlik unvoniga sazovor bo'ladilar.

Madina Hojimurodova ana shunday izlanuvchan o'quvchilarimizdan biri. U Toshkent Elektrotexnika Aloqa Instituti iqtisodiyot fani o'qituvchilari ko'magida «O'zbekiston iqtisodiyoti o'tmishda va bugun» degan mavzuda o'z ilmiy ishini olib bormoqda. O'qishlari ham qolib ketayotgani yo'q. Barcha fanlarni a'loga o'zlashtirayapti. Keyinchalik ham shu mavzu

xolos. Shohruxga bu ishda algebra o'qituvchimiz Bahodir aka yaqindan yordam beryaptilar.

puxta bilim olishlari uchun juda barcha sharoitlar yaratilgan. Kattagina kutubxonamiz doimo



Uning orzulari katta, kelajakda o'z ishini davom ettirish niyatida.

Bir so'zli, qat'iyatliliigi bilan do'stlari va ustozlari hurmatini qozongan a'lochi o'quvchilardan yana biri Rustam Xolmatovdir. Uning sevimli fani tarix. Shunday bo'lsa-da, ikki yo'nalishda ilmiy ish qilyapti. Tarix fani bo'yicha «Sohibqiron Amir Temurning harbiy salohiyati» va fizika fani

o'quvchilar bilan gavjum, hamma xonalar kompyuter bilan jihozlangan, malakali o'qituvchilar o'z yo'nalishlari bo'yicha o'quvchilarga chuqur bilim bermoqdalar. Litseyimizning yana bir jihati shundaki, bu yerda o'qish davomida bir yilga yutishingiz mumkin. Buning uchun harakat kerak, xolos. Maktabni qizil guvohnomaga

o'quvchilardan oldinroq talaba degan nomga sazovor bo'ladilar. Buning uchun hozirda 30 o'quvchi tinmay ter to'kishmoqda. Bu yili 2 - kursda o'qiydigan Abdurasul To'laganovga omad kulib boqdi. U 3 - kurs darsligidan imtihon topshirib, yaxshi natijaga erishdi va 3 - kurslar bilan birga litseyni bitirmoqda. Ko'pgina o'quvchilar o'z nomzodlarini ko'rsatishga ko'rsatib, keyin esa imtihondan o'ta olishlariga ko'zlari yetmay chekinishmoqda. Men ularning Abdurasuldan o'rnak olishlarini istardim. Bir yilda qancha ishlarni qilish mumkin. Vaqtdan yutishni kim ham istamaydi, deysiz.

**Mashhura QAHHOROVA,**  
T.E.A.I. qoshidagi akademik litseyning 103 - guruh o'quvchisi.



*Tanishuv*

- Men Nodira To'rayevaman,- dedi u.

- *Sinfdozlaringizni aytishlaricha, siz yaxshi o'qish bilan birga bir nechta to'garaklarga ham qatnashar ekansiz.*

- Ha, maktabimizda turli to'garaklar bor. Ta'til davrida o'quvchilar vaqtlarini bekor o'tkazmaslik uchun ularga qatnashib turishadi.

- *Ta'tildan so'z ochdingiz. Hozir bo'sh vaqtlaringiz ko'p bo'lsa kerak. Nimalar qilyapsiz?*

- Singillarimga, jiyanlarimga ko'ylaklar tikayapman.

- *Tikishni sizga kim o'rgatgan?*

- O'yijonim olib bergan qo'g'irchoqlarga ko'ylakchalar, qalpoqchalar tikardim. Keyinchalik maktabga borgandan so'ng tikishni mukammal o'rganishga kirishdim va hozir o'zimga bimalol ko'ylak tika



olaman.

- *Kitoblar ham o'qib turasizmi?*

- Ha, kitob

**NODIRA**

*Biz sizlarga tanishtirmoqchi bo'lgan qizaloq Parkent tumanidagi 27-o'rta maktabning 7-sinfida «yaxshi» va «a'lo» baholarga o'qiydi. O'zining gaplari bo'yicha maktabdagi barcha jamoat ishlarida faol qatnashar ekan, yaxshi o'qish bilan birga turli gazlamalardan quroq va o'ziga ko'ylaklar tikishni bilar ekan.*

ham yoqtiraman. Maktabimizdagi kutubxonaga a'zo bo'lganman. U yerda yangi nashrdan chiqqan kitoblar juda ham ko'p. Yaqinda Tohir Malikning «Shaytanat» kitobini o'qib chiqdim. Yana «Choliqushi»ni sevib o'qiyman. Uni qayta-qayta o'qisam ham, o'qigim kelaveradi.

- *Nima uchun aynan shu kitobni sevasiz?*

- Chunki uning qahramoni Feridening ichki kechinmalari, boshidan o'tkazgan voqealari odamni

o'ylantirib qo'yadi. Yana she'riy kitoblarni o'qishni, she'rlar

yod olishni yaxshi ko'raman.

- *Balki she'rlar ham mashq qilib turarsiz?*

- Ha, she'rlarimni «bo'shroq» deyishsa ham mashq qilishda davom etaveraman. Chunki aytishadi-ku, «Intilganga tole yor», deb. Agar o'z ustimda ko'proq ishlasam, yaxshi she'r yozish ham qo'limdan kelib qolar.

- *Bizga she'rlaringizdan birini o'qib berasizmi?*

- Mayli, men tengdoshlarimga ilk she'rimni havola etaman.

Bu she'rimni Vatan oldida o'z yigitlik burchini sidqidildan o'tayotgan askar a k a l a r i m i z g a bag'ishlaganman.

**ASKARLAR OMON BO'LING**

G'animdan

kelgan o'qqa,  
Ko'ksin qalqon aylagan.  
Vatanim tinch

bo'lsin deb,  
Jonin fido aylagan.

Burch va sadoqat deya,  
Aslo tinim bilmagan.  
Yurtim tirtgagi bo'lgan,



Askarlar omon bo'ling.

Sizlarga doim hamroh,  
Bo'lsin

Alpomish bobom.  
Temuriylarning ruhi,  
Saqlasin Sizni omon.

Onajonlar duosin,  
Jonga tumor, deb biling,  
Yurtim tirtgagi bo'lgan,  
Askarlar omon bo'ling!

- *K e l a j a k d a g i orzularingiz bilan o'rtoqlashsangiz?*

-Maktabni bitirgach, O'zbekiston Milliy Universitetining O'zbek filologiyasi fakultetiga kirib o'qimoqchiman. Kelajakda yaxshi muallim bo'lib, Vatanimga munosib farzand bo'lmoqchiman.

Orzularingiz ro'yobga chiqsin, Nodira. Omad sizga yor bo'lsin!

Ozoda  
TURSUNBOYEVA  
suhbatlashdi.

# QOVOQVOYNING SARGUZASHTI

Po'lat MO'MIN

(2 pardali, 7 ko'rinishli ertak. Yangi varianti)

(Davomi.

Boshi

o'tgan sonda)

Taruuz:

Bo'lmasa-chi  
qani, yur,  
Bolalardan  
so'rab ko'r!

Handalak:

Avval menga  
qaranglar,  
Bolalardan  
so'ranglar.

Taruuz:

Ketgan eding  
bedarak,  
Qaydan kelding,  
Handalak.

Handalak:

Handalakman, eng  
mashhur,

Bolalardan so'rab ko'r,  
Shirinlikda o'zim zo'r.  
(Ikkovi  
tomoshabinlarga salom  
berishadi. Sahna oldiga  
kelishadi).

Qovunjon:

Salom, yaxshi  
bolalar,

Sog'lom — yaxshi  
bolalar.

Rostini aytib  
bering, —

Mayli demaymiz  
g'iring,

Taruuzning  
polvonligin,

Gapining  
yolg'onligin —

Ko'rishga  
kelgansiz-a?

Taruuz:

Bu savoling  
bemaza,

O'zing bo'lasan  
izza.

Qovunning  
naynovligin,

Burnining  
tarnovligin,

Ko'rishga  
kelgansiz-a?

Qovunjon:

Maqtanishni  
qarang, fu..

Qorni to'la  
shundoq suv.

Rosayam ko'p urug'i,  
So'zining-chi qurug'i.

Handalak:

Bering menga suyunchi,  
Pishaman eng birinchi.  
Gaplaringga qarshiman,  
Eng shirinman, yaxshiman.

Taruuz:

Sen-chi shundayin Qovun,  
Ko'pirmaydigan sovun.  
Agarda bo'lmasa suv,  
Hamma chanqab qolar-ku.

Ikkalasi:

Xo'p, kelishdik  
bo'lmasa,

Qovoqvoy eng  
bemaza.

(U n i  
ko'rsatishadi).

Qovoqvoy:

Kim bemaza, ey,  
Taruuz?

So'zingga sal  
solgin tuz.

(O'r n i d a n  
turmoqchi bo'ladi, erinadi.

Qovunjon, Handalak, Tarvuz uni  
mashara qilib ketishadi.

Qovoqvoy ham ular haqida  
qo'shiq aytadi).

Qovoqvoy:

Xo'ppa semiz,  
Taruuz, Tarvuz.

Handalak, Handalak,  
G'ildirak, g'ildirak.

Qovun — Qovun,  
Sovun — sovun.

Hech kim menga tegmasa,  
Oftobda yotish — mazza.

G'ujumoy:

(Kirib)

Holi doim bo'lar voy,  
Kimki bo'lsa dangasa.

(Qaytaradi)

Qovoqvoy:

Ey, bijildoq G'ujumoy,  
Bezovta qilmagin, hoy,

Dam olayin ozgina,  
Mendan qilmagin gina.

G'ujumoy:

Bundoq sen ham tursang-chi,  
Chiniqsang-chi, yursang-chi.

Qovoqvoy:

Men oftobda pishaman.

G'ujumoy:

Bu ahvolda shishasan.

Qovoqvoy:

Ariq bo'yi juda soz,  
Mizg'ib olayin bir oz.

(Xurрак ota boshlaydi,  
G'ujumoy esa qo'lini siltab chiqib  
ketadi. Sahnaning boshqa  
burchida sharpa paydo bo'ladi.  
Eng avvalo Chigirtka yugurib-  
sakrab o'tadi-da, sheriklarini  
imlaydi. Ko'sak qurti asta  
o'rmalab kelib, atrofga  
alanglaydi).

Ko'sak qurti:

Atrof jimjitmi, qalay?

Chigirtka:

Yomonmas, ancha qulay.  
(Ikkovi sahnaning uyoq-  
buyog'ini aylanib  
chiqishadi-da, uvatda  
yotgan Qovoqvoyni  
ko'rib qolishadi).

Ko'sak qurti:

U to'nkami  
qarab ko'r?

Chigirtka:

Xurрак

otmoqda «xur-xur».

Qovoqvoy bo'lsa kerak.

Ko'sak qurti:

Rosa otmoqda xurрак.

Qovoqvoy:

(Uyqu aralash)

Qayoqdasiz, oyijon?

Ovqat pishadi qachon?

Ishtaham chalar karnay,

Burnim-chi chalar surnay.

(Burnini ushlab surnay  
chaladi).

G'ata-g'ut, g'at-g'at-g'at,

Oyi, keltiring ovqat.

G'ata-g'ut, g'at-g'at-g'at.

(Yana o'rniga borib yotadi.

Yana pishillab hurрак otadi.  
Ko'sak qurti va Chigirtka  
chetroqqa borishadi, yana qaytib  
kelishadi).

Chigirtka:  
Xomkallasin pishitar.

Ko'sak qurti:  
Sekin so'zla, eshitar.

Chigirtka:  
Shunday yoshlik pallasi —  
Ishlatmaydi kallasin.

Ko'sak qurti:

Bilmas tashvish qayg'uni,  
Oyisi boqar uni.

Oyisiga dahmaza,  
O'ziga rosa mazza.

Chigirtka:

(Tepasiga  
kelib uni turtadi).

Tur, Qovoqvoy  
yigitcha,

M e n  
d o ' s t i n g m a n

Chigirtka.

Qovoqvoy:

(Ko'zini ochib  
qo'rqadi).

Voydod oyi,  
oyijon,

Meni qutqaring  
chaqqon.

Ko'sak qurti:

Mana hozir ko'rasan,  
Seni qilamiz xursand.

Chigirtka:

Yur, hammamiz  
o'ynaymiz,

Seni yolg'iz  
qo'ymaymiz!

(Halloslab Qovunjon,  
Handalak, Tarvuzlar  
kirib kelishadi.

Chigirtka va Ko'sak  
qurti qochib qolishadi).

Taruuz:

Ushla ana Chigirtka!  
O'zini urdi chetga.

(Yana quvib  
ketishadi, ular o'rniga  
Chigirtka bilan Ko'sak  
qurtining bolalari  
chopib o'tishadi-da,  
halloslab to'xtashadi).

Ko'sak qurti bolasi:

Qovun yetvolay  
dedi.

Chigirtka bolasi:

Qayga qochamiz  
endi?

Ko'sak qurti bolasi:

Quvladi rosa Tarvuz,  
Yuragim urar hanuz.

Qochib qolinglar,  
chaqqon,

Kelishmoqda shu  
tomon.

(Ikki yoqqa  
qochishadi-da, yana  
bir-birlari bilan qaytib  
uchrashishadi. Keyin  
zaldagi tomoshabin  
bolalarga murojaat  
qilishadi).

(Davomi bor).





## Bugunning bolasi

- Navbahorxon, avvalo yuksak mukofot bilan samimiy qutlaymiz. Zulfiyaxonim nomi bilan atalmish bu mukofotni olish har bir o'zbek qizining orzusi bo'lsa ajabmas. Siz shunday baxtga erishdingiz. O'sha

- Zulfiya mukofotini qo'lga kiritish uchun ko'pqirrali iqtidor egasi bo'lish kerak. Siz ijoddan tashqari yana qaysi sohalar bilan shug'ullanmoqdasiz?

- To'g'ri aytdingiz. Bizning imkoniyatlarimiz juda keng. Faqat uni kashf eta bilish, to'g'ri yo'naltira bilish lozim. Shuning uchun ham bir soha b i l a n g i n a cheklanmasligimiz, doimo

shoiralarimiz bor. Biz ular bilan har qancha faxrlansak arziydi. Ular she'riyatidagi samimiylik, kuyunchaklikni bugun bir qator o'zbek shoirlarining ijodida ham ko'rishimiz mumkin. Barcha o'zbek shoirlarini sevaman, ularga o'xshashga harakat qilaman. Ayniqsa, Oydin opa Hojiyevaning ijodiga cheksiz hurmat bilan qarayman. Doimo u kishiga izdosh

minnatdorman. Ular menga mehribon, ammo talabchan ustoz bo'lganlar.

- Oldingizga qo'ygan maqsadlaringiz haqida ham gapirib bersangiz?

- Orzularim juda mo'la. Ulardan eng muhimi- yurtim uchun, xalqim uchun kerakli inson bo'lay. Uning kelajakdagi ravnaqiga oz bo'lsa-da, hissam qo'shilsa deyman.

- Qaysi she'ringizni tengdoshlaringiz hukmiga havola etmoqchisiz?

- «To'maris bo'lib» deb nomlangan eng sevimli she'rimni taqdim etmoqchiman:

**TO'MARIS BO'LIB...**

Vatan sajdagohim,  
suyuk mehrobim,  
Poyingga shu aziz  
boshimni qo'ydim.  
Sen murg'ak qalbimda  
gullagan bog'im,  
Onamdan so'ng sening  
taftingni tuydim.

Bog'i Eramlardan  
esgan sabolar,  
Mustaqil bo'lganing  
kuylaydi jo'shib.  
Yurtim, sening uchun  
joni fidolar,  
Sarhadlaring qo'riqlar  
mardona turib.  
Ayt, jonimni beray  
To'maris bo'lib,  
So'yla, darding olay,  
yuragim tilib.

Orzu istaklarim  
senga bahshida,  
Sen uchun yashayman  
posboning bo'lib.

- «Tong yulduzi» gazetasi va uning o'quvchilariga qanday tilaklaringiz bor?

- «Tong yulduzi» hech qachon o'z muxlislari e'tiboridan qolmasin. Tonggi yulduz misol ezguliklar bilan insonlar qalbiga ziyo tarataversin. Tengdoshlaringiz ham jamiki ezguliklar hamroh bo'lishini tilayman.

Shahlo MUTALOVA  
suhbatlashdi.

## ZULFIYAXONIM QIZILAN



Mana uch yildirki, bilimdonu zukko, iste'dodli qizlarimiz Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlanib kelyaptilar.

Bugungi suhbatdoshimiz - Navbahor Rahmonova ham ana shunday yuksak mukofot sovrindorlaridan biri. U 1984 yilda Buxoro viloyatining Shofirkon tumanida tavallud topgan. Hali yosh bo'lsada, «Orzularim», «Tonggi o'ylar» nomli kitoblari chop etilgan.

baxtiyor damlardagi xolatingiz, quvonchu hayajonlaringiz haqida gapirib bering.

- Bilasizmi, bu mukofotning ta'sis etilishi har bir ijodkor o'zbek qizi uchun katta bir imkoniyat, baxt bo'ldi, desam yanglishmayman. Negaki, hali biror davlatda ayol kishi nomidagi mukofot ta'sis etilmagan. Zulfiyaxonimdek otashqalb shoira, albatta, bunga munosib. Necha-necha qizlarni she'riyat bog'iga olib kirgan, mehribon ustoz Zulfiya opaning ruhlari doimo bizga madadkor bo'lsin. Shunday baxt nasib etib, mukofotga sazovor bo'lgan ekanman, bu menga juda yuksak qanot berdi, deya iftixor bilan ayta olaman. Shu bilan birga zimmamga katta mas'uliyat ham yuklaydi. Unga munosib bo'lishga harakat qilamiz...

harakatda, izlanishda bo'lmog'imiz lozim. Men she'rlar, hikoyalar yozish bilan birgalikda ingliz va arab tillarini o'rganishga harakat qilyapman. Shuningdek, milliy hunarmandchiligimiz namunalaridan - kashtachilik, zardo'zlikdan ham saboq olyapman.

bo'lishga intilaman...

- Bolaligingiz o'tgan qishloq haqida ham gapirib bering. Uni doimo qo' msab yashasangiz kerak-a?..

- Qo'limga qalam olishga undagan, oppoq orzularimga hamroh bo'lgan, mustaqil hayotga yo'l ko'rsatgan qadrdon qishlog'imni, menga



- O'zbek shoirlaridan kimlarga o'xshashni orzulaysiz?

- Tariximizga nazar tashlaydigan bo'lsak, Zebuniso, Nodira, Uvaysiydek mumtoz

oq yo'l tilab, qo'llarini duoga ochgan ota- onamni doimo sog'inib, qo' msab yashayman. Shu kungacha qanday muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsam, barchasi uchun ota- onamdan behad

## ABADYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

(Davomi.

Boshi o'tgan sonda).

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

Ma'lumki, amerikalik ixtirochi Robert Fulton 1807 yili birinchi paroxodni yaratgan edi. Balki Leonardo undan o'zib ketgandir, ammo bundan bexabarmiz. Yon daftarchasida Oy suratlarini chizgani haqida yo'l-yo'lakay eslab o'tadi, biroq ular hanuzgacha topilmagan. Leonardo Yer Quyosh atrofida aylanishi to'g'risida Kopernikdan 40 yil avval risola yozgan, biz kislorod deb ataydigan «hayotiy havo» haqida Lavuazedan 300 yil muqaddam so'z

qonunlar asosida ishlovchi qurilmadir, binobarin, inson qushning jamiki xatti-harakatlarini o'z ichiga oluvchi shu xil

**Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.  
Abu Shukur Balxiy**

qurilma yarata olishi mumkin».

Alximiklar simobni oltinga

Toki umumiy qoidalarni anglab yetmagunimizga qadar shart-sharoitni o'zgartirgan holda tajribalarni takrorlayverish kerak, chunki faqat tajribagina haqiqiy qoidalarni beradi. Xo'sh, bu qoidalar nimaga xizmat qiladi o'zi, deb so'rarsiz, hoynahoy? Bu savolga javobim shuki, ular birinchi navbatda tadqiqotlarimizni va san'at sohasidagi ishlarimizni yo'nalishga soladi. Bu qoidalar bizni ortiqcha,

## QIROLNING QO'LIDA JON BERGAN DAHO

yuritgan. Fotografiya

**Nazariya - sarkardayu amaliyot askardir**

yaratilishiga olib kelgan obskura kameraning ixtirochisi Kardanodan qariyb 100 yilga, havo namligini aniqlovchi gigrometr asbobining ixtirochisi Sossyurdan 300 yilga o'zib ketgan. Blez Paskal kashf etgan gidrostatika sohasiga, Galileo Galiley ixtiro qilgan teleskopga nihoyatda yaqinlashib kelgan.

Leonardo da Vinchi matematikaga plus va minus belgilarini olib kirdi; suvga tosh tashlab, tovush to'lqinlari tarqalishini tushuntirib berdi; Amerigo Vespuchchining so'zlari asosida Yangi dunyo xaritasini yaratdi; «Oq rang barcha ranglarning sababchisidir», degan taxmini o'rta tashladi. Zamonaviy texnikaning beqiyos qudrati va fidoyi ixtirochilarning barcha sa'y-harakatlariga qaramay, Leonardo tarhini chizib ketgan ornitopter - qanot qoquvchi tayyora hanuzgacha yaratilmagan. Biroq bir kuni emas, bir kuni kelib yaratilishi aniq. Chunki Leonardo yanglishmasdi. Chunonchi, u shunday deb yozgan: «Qush matematik

aylantirish ustida zo'r berib bosh qotirayotgan davrda Leonardo bu sohadagi bashoratlarning butun boshli silsilasini yaratib ketdi. Gap u qilgan kashfiyotlarning sonida ham, ularning aksariyati (masalan, gelikopter) o'z zamonasidan ancha ilgarilab ketganida ham emas. Leonardo da Vinchining fan va texnikadagi o'rmi-bu tajribalar davri tug'ilishi demakdir. Bu davr hozirgi tadqiqotlarda ham hukmronlik qilmoqda, bunisi ham mayli-ya, italiyalik buyuk olim paytida bo'lmagan zamonaviy ilm-fan sohalariga ham kirib kelmoqda. Atrofdagi hamma narsa Leonardo uchun tafakkur va tuyg'ular tadqiq etiladigan ulkan bir tajribaxona edi.

«Oliy aql-idrokning yagona murabbiysi faqatgina tabiatdir», deb yozadi u. Boshqa bir o'rinda esa olim quyidagilarni qayd etadi: «Tabiatni talqin etuvchi narsa tajribadir. U hech qachon aldamaydi. Bizning fikr-mulohazamiz gohida aldanishi mumkin, chunki tajriba tasdiqlamaydigan narsalarni kutadi.

b e h u d a urinishlardan va yetarlicha bo'lmagan natijalardan saqlaydi». Ushbu so'zlar zamirida o'zining bor qimmatini hanuzgacha yo'qotmay kelayotgan butun boshli bir ilmiy dastur yotibdi.

Bu inson umr bo'yi nufuzli homiylarga qaram bo'lib keldi. Uning sadoqatli do'stlari va ashaddiy dushmanlari bor edi. Buni qarangki, hatto shu o'rinda ham Parvardigor uni alohida «siyladi»: buyuk Leonardoning dushmanlari ham buyuk edi. Masalan, Mikelanjelodek daho singan burnini nafrat bilan burishtirib, uning oqsochi tasviriy san'at va haykaltaroshlikni anavi «milanlik skripkachi»dan yaxshiroq tushunishini ta'kidlar edi.

Vaholanki, bu laqab Leonardo nechog'lik serqirra ekanini ko'rsatadi, xolos: u chindan ham o'z davrining buyuk musiqachisi, bazmlaru bayramlarning ardoqli mehmoni edi. Ha, u barcha narsaga birdek qiziqar, bor iste'dodiyu g'ayrat-shijoatini parchalab tashlagandek edi go'yo. Davralarning guli bo'lgan, goh teridan qanot tikilgan tirik kaltakesak bilan do'stlarini cho'chitar, goh mexanik

sherni o'ynatib, tomoshabinlar ko'nglini olardi. Ba'zi biograflar bu ishlari uchun uni hatto koyishardi ham. Biroq bu ta'na adolatdan emas, chunki Leonardo san'at va ilm-fandan ham hayotni ko'proq sevardi. Yangi mexanizmda, ayolning go'zal chehrasida, kamalak ranglarida hayotni ko'rar, his etardi.

Ilm-fan tarixi bilan shug'ullanuvchi jurnalist Yaroslav Golovanovning xotiralaridan:

«...Bulutli kun edi. Luara suvlari hech nimani aks ettirmaydi, daryo to'xtab qolgandek. Ambuaza minorasi, uylar, maysalaru daraxtlar yaprog'i, turistik avtobusdan qaynab chiqayotgan sershovqin va tinch turmas amerikaliklarning yomg'irpo'shiyu kamzullari, shu jumladan mening yuzim ham pastak

bulutlardan inyotgan suv changiga belangan. Qasr qulflog', hech kim ko'rinmaydi, chiptaxona darchasida esa jag'dor bir it qilt etmay o'tiribdi. Ko'p o'tmay muloyimgina bir ayol kelib, itni ohista jo'natib yubordi. Keyin bizga chiptalar tarqatgach, bir dasta kalitlarni olib, qadimiy va namiqqan darvoza tabaqalarini lang ochdi. Men nima uchundir oyog'im ostiga, tosh sahnga va egar shaklida yedirilib ketgan ostonaga qaradim. Chiptachi ayol esa nigohimga ko'zi tushib, mayingina jilmaydi va sekingina bosh irg'adi. Ana shunda tushundimki, bu ostonaga Leonardoning qadami tekkan...»

Da Vinchining so'nggi homiysi Fransisk I bo'ldi. Chamasi, Fransiya qiroli italiyalik dahoni shunchaki

qadrlab qolmay, inson sifatida e'zozlagan. Leonardo bu paytga kelib, mashhur avtoportretidan bizga yaxshi ma'lum bo'lgan qariyaga aylangan, qiyofasi ulug'vor, uzun sochlariyu to'liqinsimon soqoli nuqradek

**Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.**

*Sharq naqli*

yarqirardi. O'zining jajjigina poytaxti bo'lgan ana shu Ambuazada Fransisk



I musavvirga 3500 oltin ekyuga Klo Lyuse qasrini sotib olib berdi va Leonardo bu yerga 1516 yili ko'chib keldi. Shu yerda u o'ziga xos kanalizatsiya tizimining loyihasi ustida ishladi, Fransisk uchun hashamatli saroy chizmasini yaratdi. Shu yerda «Mona Liza»ni xotirasi bo'yicha yakunladi, biroq bu asari asrlar osha so'nmas shuhratga sazovor bo'lishidan bexabar edi.

Tarixning sershovqin yo'llaridan chetda bo'lgan Klo Lyusening qiyofasi sal kam 500 yil mobaynida aytarli o'zgarmadi. Pazanda Maturinaning keng-mo'l oshxonasi qozonlari, kostryullari va tovalari bilan birgalikda saqlanib qolgan. Qizil g'ishtdan qurilgan, ammo suvalmagan, derazalari kichik ko'zli, yarim aylana

shakldagi devoro'choqli yemakxona hanuz turibdi. Shiftda qora to'sinlar, pastda pushtirang tosh sahn, uzun stol ustida italiyalik ustalar qo'lidan chiqqan kumush ko'zalar...

Devoro'choq yonidagi oromkursining naqshinkor suyanchig'i shu qadar balandki, Leonardo hordiq chiqarib o'tirganida orqa tomondan umuman ko'rinmasdi. Yotoqxona va u yerdagi yozuv stoli ham saqlanib qolgan. 1519 yil 23 aprel kuni

Leonardo ana shu stolda vasiyatnoma yozib, bor mulkini shogirdi Franchesko da Melziga qoldirgan, o'zining qora matodan charm qoplab tikilgan issiq paltosini va ikki dukat pulni «yaxshi xizmat qilgani uchun minnatdorchilik» tariqasida Maturinaga berishlarini alohida ko'rsatib o'tgan.

Bir asrdan oshdiki, Klo Lyuse qasri aslzodalar xonadonidan bo'lgan Sen-Brizning mulki hisoblanadi. Bu yerdagi jamiki buyumlaru jihozlar, Maturinaning tovalaridan tortib, chiptaxonada o'tirgan jag'dor itgacha shu oilaga tegishli. Qolaversa, siz bilan bizdek kiyingan zamonaviy odamlar ham borki, ular istalgan paytda bu yerga kelishga, yemakxonadagi devoro'choq yonida ovqatlanishga va Leonardo da Vinchining karavotida yotib uxlashga haqlidirlar. Umid qilamizki, ular bu huquqlardan foydalanishmaydi, chunki bunga aql bovar qilmaydi.

Ajablanayotgandirsiz, aynan Teledo'mboqchani o'zi taklif qilayotgan quvnoq maydoncha qayerda ekan, deb. Bu maydoncha poytaxtimizning A. Ikromov tumanidagi 311 - maktabda joylashgan bo'lib, unda «Bo'ston» nomli oromgohda ta'til kunlarini maroqli o'tkazayotgan bolalar dam oladilar. Bu

maydonchani bemalol kichik istirohat bog'i deb atasa bo'ladi. Turli xildagi arg'imchoq, charxpalaklar bolalar xizmatida. Haryili yozgi ta'tilda ishga tushadigan bu oromgohning «Bo'ston» deb atalishi ham bejiz emas. Maydonchani o'z ko'zingiz bilan ko'rsangiz, gaplarimning rostligiga amin bo'lasiz. Oromgohda dam olayotgan quyi sinf o'quvchilari yetakchilari Baxtiyor Badalov bilan birgalikda kunlarini sermazmun o'tkazishayotganiga guvoh bo'ldik. To'rtta — «Kichikintoy», «G'unchaoy», «Shirintoy» va «Oftoboy» deb nomlangan guruhlar bo'lingan bolalar shashka, raqs, yumshoq o'yinchoqlar, xo'r, ifodali o'qish to'garaklariga a'zo bo'lib, tez-tez o'zaro musobaqalar o'tkazisharkan. Ayniqsa, oromgoh ichida qurilgan hovuz ularning eng sevimli joyi bo'lib, bolajonlarni suvdan chiqarish amrimahol ekan. Biz ularning kun tartibi bilan qiziqdik. Nonushta, madaniy-ommaviy tadbirlar, sport musobaqalari, tushki ovqat, orom vaqti, kechki ovqat, reja asosidagi tadbirlar, to'garaklardagi mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, kechki yig'ilish... Har bir guruhning o'z devoriy gazetasi, o'z shiori va o'z qo'shig'i bo'lib,



*Barchaga, barchaga,  
barchaga!*

*Yoz — o'tmoqda soz!  
Har kuni 311 -  
boshlang'ich maktabda  
yozgi quvnoq maydoncha  
ishlaydi.*

*Teledo'mboqcha.*

maydonchada dam olish bilan birga o'zlari sevgan kitoblarini o'qishlari uchun sharoit yaratib berilibdi. Yotoqxonalariga kirsangiz, ozodaligini ko'rib, ko'zingiz quvnaydi. Hozirgi kunda bolalar «Bog'i Eram» istirohat bog'ida 25 iyunda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan «Kamalak — 2002» oromgohlararo ko'rik-tanloviga qizg'in tayyorgarlik ko'rayotgan ekanlar. 2001 yildagi kabi bu safar ham g'oliblikni qo'lga kiritish harakatida ekanliklarini aytishdi. Bu oromgohdagi gaplar maktabning o'zida qanday yangiliklar bor?

## ISTIQLOL G'UNCHALARI

guruhlar birlashmasini umumiy qilib «Istiqlol g'unchalari» deb nomlashibdi. Oromgohda har kuni ikkita tadbir o'tkazilishi odat tusiga kiribdi. Masalan, guruhlarda sardor tanlovi, «Ona va bolalar» rasm tanlovi, ertaklar olamiga sayohat, tavallud kunlarini nishonlash, «Quvnoq startlar» kabi tadbirlar bo'lib o'tibdi. Oromgohni «Vatan» kinoteatri otaliqqa olgan bo'lib, ular bolalarga multfilmlar qo'yib berishar ekan. Kutubxonada lotin yozuvidagi turli badiiy kitoblarni o'qigan yosh kitobsevarlar Barno Usmonova boshchiligida o'qigan kitoblari yuzasidan bahs-munozara o'tkazishar, ifodalı o'qishni o'rganishar

ekan. Hatto ko'chma kutubxona ham tashkillashtirib, bolalar



*Bu o'quvchilar maktabning faxridirlar. Chunki sportning karate turi bo'yicha juda katta yutuqlarga erishganlar.*



*Bu chevar qizlar maktab oromgohi qoshida tashkil qilingan «Mohir qo'llar» to'garagining a'zolaridir.*

-Maktabda hozir ta'mirlash ishlari boshlab yuborilgan, - deya so'z boshladi 116-, 311-maktab direktori Xadicha opa Ubaydullayeva. -Yangi o'quv yiliga tayyorgarlik qizg'in. Maktabimizning o'zida otanalarga yordam bo'lsin deb «Tashxis» markazi ochdik. Bu yerda 1 - sinfga qabul qilinayotgan o'quvchilarni so'nggi tibbiy ko'rikdan o'tkazish mo'ljallangan. Yaqinda 116- va 311-maktablarimiz UNESCO jamiyatiga a'zo bo'lishdi.

Unda biz o'quvchilar bilan birgalikda «Biz o'z ona Vatanimiz — O'zbekistonimizni sevamiz» deb nomlangan tadbir o'tkazdik. Unda «Soros» fondidan Open Sokiyeti, A.Avloniy nomidagi XTXQTMOM Xalqaro Aloqalar bo'limidan Ma'rifat Rasulovalar ishtirok etishdi. Bolajonlar ingliz tilida she'r, qo'shiqlar, sahna ko'rinishlari namoyish etib, yig'ilganlarni hayratda qoldirdilar. O'quvchilarimdan ko'nglim to'q, ularning kelajagi porloq ekaniga



**Oromgohda o'quvchilar badiiy kitoblar o'qib, ertaklardan olgan taassurotlarini oq qog'ozlarga tushiradilar.**

ishonaman. Ularni juda yaxshi ko'raman, ular uchun qo'limdan kelgan sharoitlarni yaratib berishga harakat qilmoqdaman...

O'quvchilar UNESCOga a'zo bo'lish jarayonida o'zlarining bor mahoratlarini ishga solganlari chizgan suratlarida ham ko'rinib turibdi. «Save the nature» nomi ostida o'zlari chizgan suratlarini yig'ilganlarga namoyish etib, «King Solomon» (Qirol Solomon), «Little Red Riding Hood» (Qizil qalpoqcha) deb nomlangan sahna ko'rinishlarini sof ingliz tilida ijro etib berdilar. Maktab hayotidagi ijobiy o'zgarishlar nihoyatda kattaligi ko'rinib turibdi. Bu harakatlarning o'z samarasini berishiga ishonamiz. Istiqloq g'unchalaridan kelajakning umidi katta.

Ma'suda IRISNAZAROVA.

### Tengdoshlaring ijodi

## UMIDBAXSH SATRLAR



*Qo'liga umid bilan qalam olgan tengdoshingiz Feruzaxonim G'afforova Xorazm viloyati, Xiva shahridagi 1- maktabda a'lo baholarga o'qiydi.*

*Uning she'rlari tuman va viloyat gazetalarda yoritilmoqda. Iste'dodli shoira Ullibibi Otayeva ham aynan shu maktabda tahsil olgan. Shuning uchun ham uning nomi bilan ataluvchi mukofot ta'sis etilgan bo'lib,*

*Feruzaxon ana shu mukofot sovrindoridir. Yosh ijodkor ana shu shoira opasi, aziz ustozidan borib, ijod gulshanidan o'ziga xos guldastalar termoqda. Ana shu guldastalardan biri bo'lgan ilk kitobini Sizga tortiq qilmoqda. Ayni paytda zukko she'riyat muxlislari oldida imtihon topshirayotir.*

*Feruzaxon o'z kitobini «Sog'inch» deb nomladi. Ona Vatan, tug'ilgan yurt va shuning barobarida she'riyat sog'inchi... Ma'naviyati yuksak, qalbi beg'ubor, niyati pok inson borki, yaxshilar diydoriga oshiqqani kabi she'riyatni sog'inib, she'riyatga talpinib yashaydi.*

*Yaxshi she'r insonni ezgulikka, go'zallikka undab turadi. She'rni sog'ingan inson esa hamisha hurmatu e'zozga musharrafdir.*

*Feruzaxonning ilk kitobchasidan o'rin olgan ayrim ijod namunalarini e'tiboringizga havola qilgan holda unga ijodiy yutuqlar tilab qolamiz.*

### ONAJON

She'rga soldim, tuprog'u, yulduz,  
Mehr-vafo, do'st-yor su'ratin.  
Ammo onam madhini hanuz,  
Kuylamoqqa yetmas jur'atim.

Kuylamoqlik oson emas,eh,  
Ona buyuk tog'lardek aziz.  
Topmoq uchun ta'rif-u, tashbix,  
Darkor tog'dan azizroq nazm.

Ammo kurtak unishin qo'yimas,  
Sayroqi qush bo'lar polapon.  
Men ham onam haqida sarmast,  
Ajib qo'shiq bitgum begumon.

Dardkashginam, munis onamni,  
Do'stlar shunday ta'rif etayki.  
Neki go'zal bo'lsa olamda,  
Kelib o'psin onam etagin.

Men onamni shunday kuylayki,  
Muz qalblarni yoqsin, sindirsin.  
Shunday kuylay, farzandki bordir,  
Onasiga borib sig'insin.



### MENING QO'SHIG'IM

Bir yashirin ohim ketdi qaytmas bo'lib,  
Sirlil-sirlil nigohdagi savollarda.  
Shivir-shivir bo'zlagani to'lib-to'lib,  
Uchib ketdi daydi bebosh shamollarda.

Shamollar-ku yelar soylar oqar hanuz,  
Fursat o'tar chang solguncha naqdimizga.  
Gohi armon, sog'inch bo'lib osilurmiz,  
O'tayotgan ul bevafo vaqtimizga.

Misralarda shoda-shoda kuy bo'layin,  
Kuylar boshlar tez, goho soy bo'yiga.  
Chamanlarga zo'r bir beshik bo'layin,  
Qo'shiq bo'lib singay ona-yer qo'yniga.

Feruzaxon G'AFFOROVA.

Ta'til kunlari bo'lgani uchunmi yoki boshqa sababdanmi «Istiqloq umidlari» to'garagimiz a'zolari soni kundan kunga ortib borayapti. Kimdir unga havas qilayotgan uka yo singlisini, kimdir rasm chizishga qiziqadigan qarindoshini, yana kimdir ijodga ishtiyoqmand qo'ni-qo'shnisini yetaklab kelyapti.

Respublikamizning turli burchaklarida yashovchi to'garagimizning sirtqi a'zolaridan kelayotgan maktublarning ko'pligini aytmaydizmi?! Yangilikka, yaxshilikka intiluvchan bu bolalar chet tillarini o'rganibgina qolmay, she'rlar qoralashga, tarjimalar qilishga ham harakat qilishyapti. Bu quvonarli holdir, albatta. Chunki tasviriy san'atning sirli olamiga, adabiyotga, she'riyatga oshno tutingan bolalarning

## Bizning to'garak

qalbida yovuzlikka, yomonlikka o'rin yo'q. Qolaversa, ta'til kunlarini behuda o'tkazmay, ijod mashqini olishga intilayotgan o'g'il-qizlarimiz safi qancha keng bo'lsa, shuncha yaxshi...

Ular bizni «ustoz» deya ardoqlashadi. Shu birgina so'z zamirida olam-olam

bo'laman.

Darvoqe, kezi kelganda bir gapni aytib o'tishni lozim topdim.

To'garagimizga a'zo bo'lish niyatidagi

bolalar ham, ularning ota-onalari ham birinchi galda «To'garagingiz pullikmi?» deya savol berishadi. To'garagimiz bepul! Har narsani pulga chaqaversak, ota-bobolarimizdan bizga meros «ustoz-shogirdlik» an'alarining mohiyati, qadr-qimmatini qayda qoladi?..

Feruza JALILOVA.



## "TONG YULDUZI"NING

### KELAJAGI ULAR...

ma'no - faxr-iftixor, shuningdek, burch va mas'uliyat mujassam. Har dushanbani intiq kutib, qoralagan she'ri, hikoyasi, chizgan rasmi-yu boshqotirmalarini ko'tarib, biz tomon oshiqayotgan o'g'il-qizlarimiz timsolida «Tong yulduzi»ning ertangi kunini, kelajagini ko'rgandek

## TAQDIRMI YO SICHQONNING AYBI?

Bir sichqoncha bor ekan,  
Fe'li juda tor ekan.  
Inida turolmaskan,  
Yig'lamay yurolmaskan.

O'jar ekan juda ham,  
Ovqat tegsa unga kam,  
Olayarkan ko'zlari,  
Qo'pollashib so'zlari.

Bir kun qaytib ko'chadan,  
Yemak izlab uychadan,  
Topolmabdi, horibdi,  
Va omborga boribdi.

U yerda zolim mushuk,  
Ko'zlari yonib xunuk,  
O'lja poylab yotardi,  
«Xur-xur» xurrak otardi.



Aslida edi bedor,  
Kutib yotardi makkor,  
Kelishi bilan mitti,  
Uni yamlamay yutdi.

Madina PARDAYEVA

Muhammad qizi,

Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumanidagi 102 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.

## ERTAKSAN HAYOT

Kimdir senda badavlat, to'kis,  
Lekin dilin ezgan bor bir armoni.  
Yana kimdir nochor yashaydi,  
Ammo baxtli o'tar har oni.

Kimdir volidasin kaftida tutib,  
Ulug' padarini quyosh biladi.  
Ularning qoshida bo'lib parvona,  
Lozim bo'lsa jonin fido qiladi.

Bir-birin tanimas yaqin qo'shnilar,  
Birovga yordami, nafi tegmagach.  
Vaqt o'tib ularni hech kim eslamas,  
Tirik bo'lsalar-da, sonda bo'lmagach.

Mayli hayot bo'lgan, qanday bo'lsang ham,  
Baribir ajoyib, go'zalsan hayot.  
Kimga armon bo'lgan, kimga baxt bergan,  
O'qib zerikmag'an ertaksan hayot!

Atirgul O'NGARBOYEVA,  
O'zMU qoshidagi S.Rahimov akademik litseyi talabasi.

## WISHES TO MY FRIEND

I wish you — discover islands,  
With struggle explore new lands.  
And can sail around the world,  
With inspiration say the word.

Be prompt and loose as a wind,  
Be wonderful, lucky and kind.  
Your brightly future is ahead  
My best wishes to my friend!

Kamola UBAYEVA,

Obid Sodiqov nomli

249 - maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.




## SOG'LOM AVLOD

Sog'lom bo'lsa onalar,  
Sog'lom bo'lar bolalar.  
Qudratimiz shundadir,  
Shu munavvar kundadir.

Sog'lom avlod yarating,  
Nomin elga tarating.  
Qudratli bo'laylik biz,  
Bilim olsin o'g'il-qiz.  
Qadrlasak har onni,  
Lol qilamiz jahonni.

*Nargiza JALILOVA,  
Samarqand viloyati,  
Urgut tumanidagi 108 -  
maktabning 9 - sinf  
o'quvchisi.*



*Tengdoshingiz Nargizaxon barchangiz sevib tomosha qiladigan  
multfilm qahramonlarining rasmlarini ham chizib yuboribdi.*

## ONAJON

Onajon siz mening baxtim, quvonchim,  
Poyingizga to'shayin alvon gullarim.  
Bosh qo'ysam bag'ringiz orom bag'ishlar,  
Siz-la nurafshondir, nurli yo'llarim.

*Muhayyo HAYDAROVA,  
Toshkentdagi 25 - maktabning 6 - «A» sinf  
o'quvchisi.*



- Bolam, ortingdan birov quvayotgandek  
shoshilib qayerga ketyapsan?-so'radi buvi  
nabirasidan.

- Muzqaymoqqa!- dedi nabira.  
- Puling bormi?  
- Ertaga dadamdan olaman...

XXX

Jajji Dilmurod kitobdagi suratlarni tomosha  
qilib o'tirib, hayron bo'ldi:

-Dada, mana bu qo'ylar o't yemay  
turaverishadimi?

*Dilshod G'OFUROV,  
Shayxontohur tumanidagi  
169 - maktabning 7 - «A» sinf o'quvchisi.*



Malika Oy  
o s m o n  
s a l t a n a t i d a  
istiqlomat qilarkan. Uning  
husnu jamolda yagona  
go'zal qizi bor ekan.

Kunlardan bir kuni  
Oyning vaziri Chaqmoq bir  
begunohni sababsiz o'limga  
mahkum etibdi. Bundan  
habar topgan Oy uni  
jazolabdi. Shundan so'ng

Chaqmoqning yuragida qasos  
o'ti alanganibdi. Payt  
poylab, Oyning qizini Yerga  
uloqtiribdi. Ona Yer qizni saxiy  
bag'riga olibdi. Oy esa zor-zor

yig'lab qolaveribdi...  
Oradan hech fursat o'tmay

qiz yer bag'ridan navnihol  
bo'lib unib chiqibdi. U  
onasini juda sog'inar, o'z  
uyini qo'msarkan.  
Kunduzlari yuzlarini  
berkitib, oqshom payti -  
ko'kka Oy balqib  
ch i q q a n d a  
ochilarkan. Tun  
bo'yi ona-bola bir-  
birlarining  
diydorlariga to'yib  
olisharkan. Shuning uchun  
ham insonlar unga  
Nomozshomgul deya nom  
berishibdi.

*Mushtariybegim  
SAYFIDDIN qizi,  
Toshkent tumanidagi  
30 - o'rta maktabning  
6 - sinf o'quvchisi.*



NOMOZSHOMGUL

Qatralar

## MA'NAVIYAT

Ma'naviyat - inson ongi,  
tafakkurini sug'oruvchi  
buloq. U shunday bir  
tuyg'uki, inson uni zabt  
etishi uchun ilm  
xazinasidan aql durlarini  
terib olishi, iroda va sabr-  
qanoat qurolini ishlata  
bilishi lozim bo'ladi.

## UMR

Baxt va g'am, shodlik va  
qayg'u, sahovat va adovat  
kabi yuklarni o'z tuyasiga  
ortgan karvon.

*Shahnoza OYDINOVA,  
Alisher Navoiy nomli  
Respublika san'at  
litseyining 11- «G» tarix  
sinfi o'quvchisi.*

## BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!


## IBRATLI KRIPTOGRAMMA

1. O'zbekistondagi viloyat — 1, 4, 6, 3, 7, 9, 11.      3. Boshdagi a'zo — 10, 1, 12.  
2. Sayxun — 2, 3, 5, 6, 15, 8.      4. O'g'il bola ismi — 13, 1, 14, 1, 13.

10	1	4	4	1	13
9	4	1	14	1	5
9	8	12	3		
9	2	13	3	6	1
6	3	5			

## «FIL» KRIPTOGRAMMASI

1. Qishda foydalaniladigan moslama — 2, 4, 7, 9, 4.  
2. Qo'l yuvishda foydalaniladi — 5, 8, 6, 4, 10, 2, 4.



3. Hindistondagi shahar — 1, 4, 12, 11, 3, 14.  
4. Juda sodda — 13, 15, 18.  
5. Biror bir narsaga berilgan ruxsat — 16, 19, 18, 21, 18.  
6. Chopsa chopilmas, ko'msa ko'milmas — 10, 5, 20.  
7. O'q — 17, 5, 17.  
8. Yigit — 22, 14.

Nilufar XADIMETOVA,  
Yunusobod tumanidagi  
9 - maktabning  
8 - sinf o'quvchisi.

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi  
273 - litsey maktabi tomonidan Odilova  
Barno Mirvasilovnaga berilgan tayanch  
ma'lumot to'g'risidagi O'R-1 №0034278  
raqamli yo'qolgan Guvohnoma  
BEKOR QILINADI.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
DAVLAT MATBUOT  
QO'MITASI,  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI XALQ  
TA'LIMI VAZIRLIGI,  
«KAMOLOT»  
YOSHLAR IJTIMOY  
HARAKATI,  
«SOG'LOM AVLOD  
UCHUN» XAYRIYA  
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:  
Umida ABDUAZIMOVA  
TAHRIR HAY'ATI:  
Shuhrat AHMEDOV,  
Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa  
MUSURMONOVA,  
Qahramon  
QURONBOYEV,  
Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir  
o'rinbosari),  
Po'lat MO'MIN,  
Mukarrama MURODOVA,  
Tohir MULLABOYEV,  
Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»  
nashriyot uyi kompyuter  
bo'limida terib sahifalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma  
taboq.  
«Sharq» nashriyot-  
matbaa aksiyadorlik  
kompaniyasida 46.291  
nuxxada ofset usulida bosildi.  
Korxonalar manzili: «Buyuk  
Turon» ko'chasi, 41.  
Buyurtma № T-560  
Gazetani  
Muhabbat MAHSUDOVA  
sahifaladi.  
Navbatchi:  
Ozoda TURSUNBOEVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi  
№ 000137  
Manzilimiz: 700129,  
Toshkent shahri, Navoiy  
ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08